

SAYQALIYNING QIYOMATNOMA ASARI

Sultonova Dilovar Nematilla qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi magistranti*


Annotatsiya: Maqola toshkentlik shoir Sayqaliyning badiiy merosi va uning qalamiga mansub “Qiyomatnoma” asari tahliliga bag'ishlangan. Unda asosiy e'tibor qissalarning xalq badiiy va diniy tafakkurini o'stirishdagi o'rniga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Sayqaliy, xalq qissalari, diniy tafakkur, Ibratnoma, Rangnomai imom Muhammad Hanafiya.

Kirish


Sayqaliy, Hisoriy, Sobiriy (taxalluslari; ismi Sobir) (1730— Hisor — 1798) — shoir. «Qissai Ibrohim», «Rangnomai imom Muhammad Hanafiya», «Ahtamnoma», «Ravzat ush-shuhado» kabi diniy-didaktik asarlari bor. Ularda Sharqda mashhur ayrim syujetlar qisqa bayon etilgan. G'azal, muxammas, musaddas, musamman va masnaviylarida zamonasidan, haqsizlik va qashshoqlikdan shikoyat qilgan, insonni, uning sevgisini ulug'lagan. Sayqaliy ijodida ishqiy-sarguzasht mazmundagi «Bahrom va Gulandom» dostoni alohida ahamiyatga ega. Asar masnaviy va lirik janrlarda aralashtirib yozilgan. Kirish qismida 20 dan ortiq ishqiy syujetlarni sanaydi. Uning asarida xalq og'zaki ijodidagi Bahrom obrazi asosiy qahramon qilib olingan. Rum shahzodasi Bahromning Chin malikasi Gulandomga oshiq bo'lishi va ularning sarguzashtlari asarning asosiy syujetini tashkil etadi. Asarda mardlik, vatanparvarlik, sadoqat, maqsadga intilishda sobitqadamlik kabi olijanob insoniy fazilatlar tarannum etilgan.

Sayqaliy asarlari Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Tatariston va boshqa joylarda keng tarqalgan, bir necha bor nashr etilgan. Qo'lyozma nusxalari Sankt-Peterburg, Toshkent, Ashxobod, Dushanba, Samarqand kabi shaharlardagi qo'lyozmalar fondlarida saqlanadi.




Bundan tashqari O'zR FA Sharqshunslilik institutidagi 13055 inventer raqami ostida saqlanayotgan jildda Sayqaliyning “Qiyomatnoma” kabi qissalari qo'lyozma nusxalari jamlangan. Shuningdek, 12457/I inventer raqami ostida “Qissayi bin Muhammad”, 11113 inventer raqami ostida “Iskandarnoma”, 8844/I inventer raqami ostida “Dahmayi Shohon”, 6350/VII inventer raqami ostida “Qissayi Muhammad Hanafiy”, 8924/II inventer raqami ostida “Me'rojnoma” kabi qissalarining qo'lyozma nusxalari mavjud. Bundan tashqari mazkur fondada adibning “Qissayi Hazrat Ibrohim va Ismoil alayhissalom” qissasining toshbosma nusxasi ham saqlanadi. “Ibrohim bin Muhammad” qissasining 8 ta toshbosma nusxalari Samarqandda va 1905, 1906, 1910, 1911, 1913, 1914, 1916-yillarda Toshkent shahrida nashr etilgan.

Tarix va badiiy adabiyot bir biri bilan chambarchas bog'liq va bir birini to'ldirib turishi hammaga ma'lum. Fikrimizni dalili sifatida shuni aytish mumkinki, tarix voqelikning qanday bo'lib o'tganini so'zlasa, adabiyot esa qay tarzda bo'lgani xususida yoritadi. Tarixiy voqeani xalq onggiga singdirishning samarali vositasi esa unga badiiylik olib kirishdir. Bu jarayonda xalq orasida keng tarqalgan naql va rivoyatlarning qayta ishlangan va o'zida diniy-didaktik ruhni aks ettirgan qissalar muhim ahamiyat kasb etdi.



XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Sayqaliy o'zining diniy-didaktik mazmundagi qissalari orqali xalqimiz qalbiga kirib borgan. Bundan tashqari ijodkor ko'plab arab, fors-tojik tillaridagi asarlarni mutolaa qilib, ularni xalqqa ham yetkazish maqsadida turkiy tilga tarjima qilgan yoki o'zi o'qigan asarlar asosida juda mazmunli qissalar yozgan. Shu tufayli unga tarixiy voqealarni bayon qilishda ham zarur o'rinlarda to'qima obrazlarni qo'shish orqali yanada mazmundor va qiziqarli tarzda qissa yoza oladigan shoir sifatida baho beriladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimai. - Toshkent, 2019. - 483 b.
2. Abdulahatov N., A.Rahmonov, M.Ahmedov. Buyayda ziyoratgohlari ("Bibi Ubayda yoxud Safed Bulon qissasi" asosida). -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. - 308 b.